



RELATIONS BETWEEN RUSSIA AND AFGHANISTAN DURING THE REIGN OF ABDURRAHMAN KHAN

Yulduz U. Akramova

PhD's student

National University of Uzbekistan

E-mail: yulduzakramova95@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir, centralization policy, pashtunization policy, internal migration, Hazara uprising, Durand line, secret diplomacy, tribal governance, Islamic legislation, "The Great game", East – India Company.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: At the end of the 19th century and at the beginning of the 20th century, Abdurrahmon, who played a significant role in strengthening the state, eliminating internal conflicts, and making Afghanistan independent from the British Empire to a certain extent, became the king of Afghanistan. During the reign of Abdur Rahman Khan, the relations between Afghanistan and Russia were marked by political, economic, and cultural influence. In particular, the Russian Empire's efforts to exert influence over Afghanistan, especially regarding border policy and security issues, were of great significance. Afghanistan sought to maintain its independence and attempted to establish diplomatic relations with Russia. At the same time, Russia aimed to expand its influence in Central Asia and sought to strengthen its position in Afghanistan. These relations led to a complex interaction and rivalry between the two states.

ABDURAHMON XON DAVRIDA ROSSIYA VA AFG'ONISTON MUNOSABATLARI

Yulduz U. Akramova

Tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy Universiteti

E-mail: yulduzakramova95@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Amir, markazlathuv siyosati, pushtunlashtirish siyosati, ichki

Annotatsiya: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg'oniston hukumati tepasiga

migratsiya, Hazora qo'zg'aloni, Durand chizig'i, maxfiy diplomatiya, qabila boshqaruvi, Islomiy qonunchilik, "Katta o'yin", Ost – Indiya.

davlatni mustahkamlashda, ichki nizolarni bartaraf etishda, shuningdek, Afg'onistonni Buyuk Britaniya imperiyasidan muayyan darajada mustaqil qilishda katta rol o'ynagan xon Abdurahmon keladi. Abdurahmon xon hukmronligi davrida Afg'oniston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar ko'plab siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta'sirlar bilan belgilandi. Xususan, Rossiya imperiyasining Afg'onistonga ta'sir o'tkazishga bo'lgan harakatlari, asosan, chegaraviy siyosat va xavfsizlik masalalaridagi munosabatlar alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Afg'oniston o'z mustaqilligini saqlab qolishga intilib, Rossiya bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga harakat qildi. Shu bilan birga, Rossiya o'zining markaziy Osiyo siyosatidagi maqsadlarini amalga oshirishga urunib, Afg'onistonda o'z ta'sirini kengaytirishga harakat qilgan. Bu davrdagi munosabatlar ikki davlat o'rtasida raqobatni yuzaga keltirgan.

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ РОССИЕЙ И АФГАНИСТАНОМ ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЯ АБДУРАХМАНА-ХАНА

Юлдуз У. Акрамова

Докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: yulduzakramova95@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир, политика централизации, паштунская политика, внутренняя миграция, Хазарейское восстание, Линия Дюранда, секретная дипломатия, племенное управление, Исламское законодательство, «Большая игра», Ost – Индия.

Аннотация: В конце XIX века – начале XX века к власти в Афганистане пришел Абдурахман хан, сыгравший большую роль в укреплении государства, устранении внутренних конфликтов и обеспечении в определённой степени независимости Афганистана от Британской империи.

В период правления Абдурахмана хана отношения между Афганистаном и Россией характеризовались политическим, экономическим и культурным влиянием. В частности, попытки Российской империи оказать влияние на Афганистан, особенно в вопросах пограничной политики и безопасности, имели большое значение. Афганистан стремился сохранить свою независимость и пытался установить дипломатические связи с Россией. В то же время Россия стремилась расширить свое

влияние в Центральной Азии и пыталась укрепить свои позиции в Афганистане. Эти отношения привели к сложному взаимодействию и конкуренции между двумя государствами.

Kirish

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afgʻoniston tarixida muhim oʻrin egallagan shaxs – Abduraxmon xon boʻlib, u mamlakatni siyosiy va maʼmuriy jihatdan birlashtirishga katta hissa qoʻshgan. U “temir xon” nomi bilan tarixda tanilgan boʻlib, oʻzining qatʼiy siyosati, qattiqqoʻl boshqaruvi va mustaqillikka intilgan tashqi siyosati bilan ajralib turadi. Abduraxmonxon ichki siyosatda markaziy hokimiyatni mustahkamlash, qabilaviy boʻlinishni tugatish va diniy rahbarlar yordamida aholini boshqarish yoʻlini tutdi. Tashqi siyosatda esa u inglizlar bilan murosaga borib, mamlakat hududi yaxlitligini saqlab qolishga va tashqi tahdidlardan himoya qilishga intildi. Bu davr Afgʻoniston mustahkam davlatga aylanishida muhim bosqich boʻldi.

Asosiy qism

Afgʻoniston tarixida katta iz qoldirgan Abdurahmon xon 1880-1919-yillarda Afgʻonistonni boshqargan va Afgʻonistonda mustahkam hokimiyat oʻrnata olgan muhim siyosiy arboblardan biri hisoblanadi. Uning davri Afgʻoniston tarixida yangi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga asos boʻlgan davr boʻldi. Abdurahmon xon 1880-yilda amir sifatida taxtga oʻtirdi. U qattiqqoʻllik bilan Afgʻonistonni boshqargan, uni markazlashtirilgan va mustahkam davlatga aylantirishga harakat qilgan. Uning hokimiyatga kelishi, Afgʻonistonning ichki nizolaridan va mustamlakachilik tahdidlaridan ozod boʻlishi zarur boʻlgan bir vaqtga toʻgʻri keldi[1].

Abdurahmon xon Afgʻonistondagi ichki nizolarni bostirishga katta eʼtibor qaratdi. U qoʻshni davlatlar va mahalliy qarshiliklarga qarshi kuchli harbiy hujumlar olib bordi. Uning davrida Afgʻonistonning ichki siyosiy tizimi mustahkamladi, lekin buni amalga oshirish uchun koʻplab qattiq chora-tadbirlar qoʻllanildi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida Afgʻonistonning turli hududlarida mustaqil boʻlishga harakat qilayotgan mahalliy amirlar va qabila boshliqlarini boʻysundurishga harakat qildi. Abdurahmon xon harbiy kuch bilan ularni bostirdi va markaziy hokimiyatga toʻliq itoat ettirdi. Undan tashqari, yirik qabilalarning siyosiy mustaqilligini kamaytirishga harakat qildi. Ayrim qabilalarni majburan boshqa hududlarga koʻchirdi (jumladan, hazoralar va boshqa etnik guruhlar), shu orqali ularning kuchini kamaytira oldi[2]. Davlat boshqaruvida markazlashgan maʼmuriy tizim joriy qildi. Soliq yigʻish, sud ishlari va boshqaruvda tartib oʻrnatildi. Siyosiy va iqtisodiy islohotlarga keladigan boʻlsak, Abdurahmon xon Afgʻonistonni zamonaviylashtirishga harakat qilgan ilk hukmdorlardan edi. U davlat boshqaruvi tizimini mustahkamladi, yangi qonunlar va boshqaruv tizimini joriy etdi,

ammo uning islohotlari ko‘pincha “katta hukmdor” tarzida amalga oshirildi. Afg‘onistonning iqtisodiy tizimi ham yaxshilandi, ammo bu islohotlar ko‘proq hukumatni quvvatlashga qaratilgan edi. Biroq, davlat ichida aloqa vositalari ya‘ni pochta tizimi va ko‘plab yo‘llar barpo etildi.

Abdurahmon xon Afg‘onistondagi madaniy va diniy tizimni ham o‘zgartirishga harakat qilgan. Din – uning siyosatida muhim vositabo‘lgan. U ulamolarni qo‘llab – quvvatlab, o‘zining hokimiyatini diniy asos bilan mustahkamladi. U diniy va siyosiy jihatdan qat‘iy pozitsiyani saqlab, bir qator islohotlar o‘tkazdi. Ammo bu islohotlar ko‘pincha ko‘plab qarshiliklarga duch keldi [3].

Abdurahmon xon Afg‘oniston tarixida buyuk va murakkab siyosiy arbob sifatida tanilgan. Uning davri, Afg‘onistonning siyosiy barqarorligini va mustaqilligini saqlashga harakat qilgan davr bo‘ldi. Abdurahmon Xon davrida Rossiya va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar o‘zining murakkabligi va o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. U Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarda ehtiyotkorlik bilan yondashgan va har doim o‘zining mustaqilligini saqlab qolish uchun kurashgan. Sovet Rossiyasi bilan munosabatlarda Abdurahmon xon Rossiya imperiyasiga qarshi mustahkam siyosat olib brogan[4]. U Sovet Rossiyasi bilan chegaralaridagi munosabatlarni aniqlash uchun bo‘lib o‘tgan “Peshovar konferensiyasi”da qatnashdi va bu orqali Afg‘onistonning mustaqilligini saqlashga intildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda kengayishni davom ettirgan. Rossiya Afg‘onistonning shimoliy chegaralariga yaqinlashdi va bu holat Abdurahmon Xonning siyosiy strategiyasiga ta‘sir ko‘rsatdi. Xon, Rossiya ta‘siridan qochishga va o‘zining mustaqilligini himoya qilishga harakat qilgan. Ammo har doim ham bu borada ustunlikni saqlab qola olmagan. Ayniqsa Rossiya va Afg‘oniston o‘rtasida chegaraviy masalalar alohida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xon davrida Afg‘oniston va Rossiya o‘rtasida aniq belgilangan chegaralar yo‘q edi, bu esa doimiy nizolar va diplomatik kelishmovchiliklarga olib keldi[5].

“Buyuk o‘yin” deb ataladigan geosiyosiy raqobat davrida, Afg‘oniston ikkita yirik kuch, ya‘ni Rossiya va Britaniya imperiyalari orasida strategik ahamiyatga ega hudud bo‘ldi. Abdurahmon Xon bu raqobatni yumshatishga harakat qildi, Rossiya bilan aloqalarni mustahkamlashga intildi, biroq Britaniya bilan ham do‘stlik aloqalarini o‘rnatishdan manfaatdor edi. Britaniya bilan munosabatlarda Abdurahmon xon Britaniya imperiyasi bilan ham mustahkam aloqalar o‘rnatdi, chunki Britaniya o‘zining Hindiston mustamlakasini Afg‘oniston orqali himoya qilishni istardi. Abdurahmon xon Britaniya bilan muntazam ravishda kelishuvlarga erishgan bo‘lsa-da, ammo Britaniyaning Afg‘onistondan ko‘zlagan maqsadini juda yaxshi anglar edi. Shu sababli, munosabatlarda juda ehtiyotkorlik bilan harakat qildi va bor kuchi bilan mamlakat mustaqilligini saqlashga intildi.

Abdurahmon Xon, Rossiya bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirishga intilib, Rossiya imperiyasidan moliyaviy va harbiy yordam olishga muvaffaq bo'ldi. Xon Rossiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatiga ko'p hollarda muvofiq harakat qildi. Abdurahmon xon uchun Rossiya bilan yaxshi munosabat Britaniyadan himoyalovchi yagona yo'l deb bilardi[6].

Abdurahmon Xon, tashqi siyosatida mustahkam hokimiyatni yaratishga va siyosiy beqarorlikni bartaraf etishga intildi. Biroq, Rossiya imperiyasining o'sib borayotgan ta'siri Afg'onistonga tahdid solib, Xonni o'zining siyosatida murakkab tanlovlarga duchor qildi. 1919-yilda vafot etgan Abdurahmon xonning o'limidan keyin, Afg'oniston davlatida barqarorlik biroz yo'qolgan. Biroq, uning hokimiyati davomida o'z davlatini mustahkamlash, mustaqillikni saqlash va markazlashgan hokimiyat tizimini yaratish yo'lida erishilgan muvaffaqiyatlar uning merosi sifatida qoldi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdurahmonxon davrida Afg'oniston ichki va tashqi siyosiy sohalarda sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi. Ichki siyosatda u markazlashgan davlat qaror topdirib, mahalliy hokimlar va qabilalarning ta'sirini kamaytirdi. Islom dini va shariat qonunlariga tayangan holda hokimiyatini qonuniylashtirdi va shu bilan birga siyosiy muxolif kuchlarni bostira oldi. Tashqi siyosatda Afg'oniston mustaqilligini saqlab qolish uchun muvozanatli siyosat olib bordi – ayniqsa, Buyuk Britaniya bilan tuzilgan kelishuv va shartnomalar asosida mamlakatni mustamlaka bo'lishdan asradi. Uning faoliyati tufayli Afg'oniston siyosiy barqarorlikka erishdi va keying islohotlar uchun zamin yaratildi. Shu tariqa, Abdurahmonxon o'z davrining eng kuchli va ta'sirli hukmdorlaridan biri sifatida tarixda nom qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: "Navro'z nashriyoti, 2017. – 264 b.
2. Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы / Центральная Азия и Кавказ, Том 16, Выпуск 2, 2013.
3. The Encyclopaedia Britannica: A Dictionary of Arts, Sciences, Literature & General Information; the Three New Supplementary Volumes Constituting with the Volumes of the Latest Standard Edition, the Thirteenth Edition (en). Encyclopaedia Britannica, Company, Limited, 1926 — 46-bet.
4. McMahon, Henry A (1939). An Account of the Entry of H. M. Habibullah Khan Amir of Afghanistan into Freemasonry. London, UK: Favil Press, Ltd

5. HH Sir Amir Habibullah Khan“. Ancestry(2003-yil 5-avgust). 2012-yil 24-oktyabrda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 19-sentyabr.
6. The Encyclopaedia Britannica: A Dictionary of Arts, Sciences, Literature & General Information; the Three New Supplementary Volumes Constituting with the Volumes of the Latest Standard Edition, the Thirteenth Edition (en). Encyclopaedia Britannica, Company, Limited, 1926 — 46-bet.
7. „Afghanistan 1919–1928: Sources in the India Office Records“. 2017-yil 16-yanvarda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2023-yil 22-sentyabr.